

# "O'qituvchi va murabbiylar" kuni



Termiz shahridagi "Best" restoranida 1-oktabr "O'qituvchi va murabbiylar kuni"ga bag'ishlangan bayram tadbiri bo'lib o'tdi.

Unda shahrimizdagi ta'lim muassasalari mutasaddilari, eng ilg'or va faol o'qituvchilar, tizimda samarali mehnat qilayotgan faxriy ustozlar ishtirok etdi.

Karnay-surnay sadolari ostida, ishtirokchilar chehralarida chinakam bayramona kayfiyat bilan fayzli boshlangan tantanali marosimda shahar hokimi O'ktam To'rayev o'qituvchi va murabbiylarni olijanob va mas'ulyatli faoliyatlariga kuch-g'ayrat, yutuq va omadlar, xonadonlariga esa baxtu saodat, fayzu baraka tilagan holda umumxalq bayrami bilan samimiy tabrikladi.

Tadbirda bir guruh fidoyi ustoz va murabbiylarga shahar hokimining faxriy yorliq va esdalik sovg'alari topshirildi.

Tashkil etilgan qiziqarli konsert dasturida sahnalashtirilgan chiqishlar barchaga a'lo kayfiyat bag'ishlab, elimiz suygan san'atkorlar tomonidan kuylangan qo'shiqlar barchani raqsga chorladi.